



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

DOSTONLARDA OBRAZLAR TIZIMI MASALASI VA “SANAMGUL”
DOSTONIDAGI OBRAZLAR

THE PROBLEM OF THE CHARACTER SYSTEM IN EPIC LITERATURE AND THE
CHARACTER GALLERY OF THE EPIC “SANAMGUL”

Shohsanam NOMAZOVA,
TOSHDOTAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HRXP8641

Annotation. *This article studies the system of images in Rasul Bakhshi's epic “Sanamgul” and the specific features of the epic. The artistic aspects that determine the literary value of the epic and distinguish it from other epics are scientifically and theoretically analyzed.*

Key words: *epic, Rasul Bakhshi, Sanamgul, image, development of events, artistic value, language of birds, symbol, sign.*

Bevosita badiiy obraz nima ekanligini sharhlaydigan bo'lsak, avvalo adabiy asarda (xususan dostonlarda, qolaversa, san'atning barcha turlarida) tasvirlangan inson yoki narsa-buyum, hodisalar obraz deb yuritiladi, chunki ana shu vositalar hodisaning ma'lum qirrasini, jabhasini o'zida namoyon etib, voqealikni idrok etishimizga, his qilishimizga imkon beradi. Biroq “obraz” terminini avvalo, insonga nisbatan qo'llash ko'p kuzatiladi, sababi san'at va adabiyot asarlarida, qolaversa, xalq dostonlarida ham hayotning har qanday ko'rinishlarini ko'rsatishdan, gavdalantirishdan asosiy maqsad, avvalo insondir. Har bir dostonga nazar soladigan bo'lsak obrazlilik mahorat bilan ifodalanganini ko'ramiz. Shu jumladan “Sanamgul” dostonida ham ijodkorning badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi yetakchi obrazlardan tashqari ko'plab qisqa epizodlarda namoyon bo'luvchi timsollar borligiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. O'z o'rnida ular muayyan g'oya va maqsadni ravshan ifodalashga, dostonning mazmunini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

Birinchisi, dostondagi yetakchi obrazlar: Sanamgul, Kichinxon, Guldano momo, Egamqul. Ikkinchi guruhga mansub qahramonlarga esa Bibisora, Dona vazir, Ismoilshoh. Endi bevosita dostondagi yetakchi obrazlar tizimiga nazar solsak, doston aynan Bog'dod hamda Kichinxon ismli xonning ta'rifi bilan boshlanadi: “Omon, omon, omonda, qadim o'tgan zamonda, Bog'dod degan tomonda, davron o'tdi, shon o'tdi, Kichin degan yovuz xon o'tdi, Kichinxonning qo'lidan qancha-qancha begunoh jon o'tdi. Kichinxonning o'zi pakana bo'lganligi uchun hamma uni “Kichinxon” deb atar edi. Bu nomni xonning o'zi ham xush ko'rar edi. Kichinning bir bo'lmag'ur odati bor edi, ichi o'lguday tor edi, bo'lar-bo'lmasga chatoq chiqarib, buyurgani dor edi”. Bu ta'riflar orqali ham Kichinxonning zolim xon bo'lganligiga hamda qanchadan-qancha insonlarning umriga zomin bo'lganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Kichinxonga qo'yilgan nom bevosita uning pakanaligi bilan bog'liqdir, shu sababli ham xalq orasida pakana insonlarga nisbatan “Al pakanadir, al fitnadir” degan maqol paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas. “Sanamgul Kichinxonning saltanatda bosar izi edi, tuzdondagi tuzi edi, katta xotindan qolgan yodgorlik, yakkayu-yagona qizi edi, Sanamgulning onasi Sanamni tug'ish vaqtida “qora bosib” o'lgan edi, Sanamgul enagalarining qo'lida katta bo'lgan edi. Shuning uchun Kichinxon uni yoshligidan boshlab, dong'i ketgan olim va fuzalolarning qo'lida o'qitdi, Sanamgul ko'p hunar va bilimni o'rgandi va o'z davrining yetuk olimasi bo'lib yetishgan edi, musiqa asboblarning barini chalar edi, she'rlarni kuyga solar edi, qo'yingki, barcha ilmlardan xabardor edi”. Bu so'zlar ham Sanamgulning o'z davrining yetuk olimalaridan biri ekanligini hamda ma'rifatparvar inson ekanligining isbotidir. Baxshi Sanamgulni shu darajada mahorat bilan ta'riflaganki, bu ta'riflarni o'qiganimiz zamon ko'z oldimizda xushsurat bir pari namoyon bo'ladi: “Sanamgul shirin tilli, xipcha belli, jo'ra xolli, labi bolli, pari xilli, oppoq yuzli, ajib nozli, qo'ng'iroq ovozi, ko'kragi shishgan, olmaday pishgan, zulfagi immadan oshgan, g'ayrati toshgan, tim qora sochini qirqta qilib eshgan, o'rim sochi tovoniga

tushgan, ko'rganing aqli shoshgan, yurar yo'ldan adashgan, o'n oltidan oshgan, bo'ydoqlar "ko'rayli",- deb uringan, buvini ketib suringan, bir qultum suv ichsa tomog'ida ko'ringan, aqlli, xushli, dona boshli, durdan tishli, qalam qoshli, o'n yetti yoshli qiz edi. Sanamgul desa, Sanamgul edi, Kichinxonga ham qiz, ham ul edi, aql-hushi mo'l edi, ko'ngli ko'l edi, Kichinxonning bor yo'g'i shul edi". Baxshi qofiyadosh so'zlardan shunday mohirona foydalanganki, bu dostonga o'ziga xos ritm, ohangdoshlik baxsh etadi. Diqqat qaratadigan bo'lsak: "tilli // belli // xolli // bolli // xilli // yuzli // nozli // ovozi " so'zlari, keyingi kompozitsiyada esa "shishgan // pishgan // oshgan // toshgan // eshgan // tushgan // shoshgan // adashgan // oshgan // uringan // suringan // ko'ringan " kabi so'zlar, eng so'nggi kompozitsiyada esa "aqlli // hushli // boshli // tishli // qoshli // yoshli" so'zlari ohangdoshlikni yuzaga keltirgan.

*Shuniki bo'lsin kul o'choq,
Joyidan turmas mo'lchoq,
Shunday odamni topinglar,
Men beraman "gulquchoq".*

"Gulquchoq" deb ta'rif berilayotgan inson bu Sanamguldir. Kichinxon shunday insonki, uning ko'ziga hatto ko'zining gavhari bo'lgan qizi ham ko'rinmadi, doimgidek, azob-uqubat bilan sug'oriladigan farmonlari bu safar qizini ham chetlab o'tmadi. Mirshablarning nishoni esa Guldon momoning yakkayu-yagona farzandi Egamqul bo'ldi. Endi Guldon momoning holatiga nazar tashlasak:

*Men to'qolning qanotini qayirmang,
Go'shi qolib, terisini siyirmang.
Har kimsaning bo'lar menday onasi,
Hatto qushni bolasidan ayirmang.
Shamol tursa, shotirlaydi teragi,
Barg to'kishga yetmas uning diragi,
Bola uchun yonar ona yuragi,
Mendan boshqa hech kimga yo'q keragi.
Qiyg'ir degan qush o'tirar qoyada,
Qayga borsang, men boraman piyoda.
Tashlab keting men sho'rlikka o'ldirmay,
Davlatlaring bundan bo'lsin ziyoda.
Xon otangiz mot bo'ldi.
Yaxshi bo'ldi, Sanamgul,
Kuyov ko'rib kelganing.
Menga qilgan gunohing,
Qarg'a tilin bilganing.
Shul mahluqni odam qilsang,
Birga o'ynab kulasan.
Tarbiyalab yo'lga solsang,
Yaxshi xotin bo'lasan.
Yaxshi bo'lib yomon erni,
Songa solganing ko'raman.
Dod deysanmi, voy deysan,
Seni shunga beraman.*

"O'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan qarg'a haqidagi afsona, rivoyat, qo'shiq va aytimlar yaxlit tarzda qarab chiqilsa, bu qush bilan bog'liq qadimiy mifik tasavvurlar oydinlashadi. Xalq o'rtasida bevaqt qag'illagan qarg'aga nisbatan: "Yaxshi xabar bo'lsa, og'zingga osh, yomon xabar bo'lsa, boshingga tosh", deyilishi qarg'a kishilarni yaxshilik va yomonlikdan ogoh etuvchi qush sifatida anglanishini bildiradi"[Turdimov Sh., 2023: 78]. Bu dostonida ham qarg'a obrazi o'zbek xalq qo'shiqlaridagi singari xabarchi ramz sifatida kelishiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, Sanamgulni oldinda qanday voqealar kutayotganligi haqida xabar bermoqda.

*Osmonda uchib o'tgan,
Bir yolg'iz qora qarg'a,
Borsang salom degaysan,
Jonim Ma'rifatxonga.*

Yoki:

*Qarg'alar uchsa qaraylik,
Marg'ilonning yo'liga...*

Kichinxon aytganidek, Sanamgulni ana o'sha cho'loqqa beradi. Kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar o'tadi, Sanamgul Egamqulni oyoqqa turg'azish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi va qancha bedorliklardan so'ng, mashaqqatlardan keyin Egamqul oyoqqa turadi. Bu orada Sanamgul Eron xoni Ismoilxonning Hulkaroyim degan qizining To'riqashqa degan poygachi oti haqida eshitib qoladi va yum-yum yig'laydi, boisi, o'zining Samanjol oti esiga tushib ketadi. Shunda Sanamgul shunday deya zorlanib yig'lab turgan joyi:

*Avval boshda mening gulim so'lgandir,
Menday sho'rli sag'ir bo'lib qolgandir.
Otali yetim, sho'r yetim bo'lib qolganman,
Onajonim, qora bosib o'lgandir.
Quloq bermang mening adi-badima,
Parvo qilmang, pinhon aytgan dodima.
To'ri qashqa otning holing eshitib,
Samanjonim tushib ketdi yodima.*

“Xalq o'rtasida biror ayol farzand ko'rib halok bo'lsa, uni qora bosibdi, deyishadi. Ayollarning ko'z yorishi og'ir kelib, xushidan ketsa, Qorabostini haydash va tug'ilishni yengillatish maqsadida miltiq otiladi” [Turdimov Sh., 2023: 40]. “Kuntug'mish” dostonida ham shunga o'xshash tasvir bor: “Kunlardan bir kun Shoir vazirning xotini qiz tug'di, Tohir vazirning xotini o'g'il qo'ydi. Qizning otini Xolbeka qo'ydi, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'ydi. Lekin Xolmo'minning onasi qora bosib o'ldi, o'g'li etak ostida qoldi. Xolbekaning enasi emizib katta qildi...” [Bulbul taronalari. 1971: 178]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dostonlarda bizning azaliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'z aksini topadi. Shu bois ham yoshlar orasida dostonlarga muhabbat uyg'otish har bir keksa avlodning burchidir. Zero, Yurtboshimiz aytganidek: „Dostonchilik va baxshichilik-milliy g'ururimiz” [Mirziyoyev Sh. 2018].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bulbul taronalari. Besh tomlik. Aytuvchi / Ergash Jumanbulbul o'g'li. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: H.Zarif // – Toshkent: Fan, 1971. Birinchi tom.
2. Mirziyoyev Sh. 2018-yilgi Navro'z bayrami arafasidagi nutqi.
3. Turdimov Sh. O'zbek mifologiyasi va folklori. – Toshkent: Fan, 2023.

